

YORDAMGA MUHTOJ BOLALARNI TA'LIM TIZIMIGA JALB ETISH OTA-ONALAR OILA JAMOATCHILIK BILAN ISHLASH

Qarshiyeva Toshgul Baxrom qizi

Annotatsiya: ta'lim muassasalarining ijtimoiy mas'uliyati, bolalarning rivojlanishida ota-onalarning ishtiroki va jamoatchilikning qo'llab-quvvatlashi kabi jihatlar tahlil qilinadi. Ota-onalar va oila jamiyatining ta'lim jarayonidagi o'rni, ularning bolalar bilan muloqoti va ta'limga bo'lgan munosabatlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, yordamsiz bolalarga yordam berish uchun jamoatchilik tashkilotlari va davlat muassasalari bilan hamkorlik qilishning ahamiyati ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: yordamga muhtoj bolalar, ta'lim tizimi, jamoatchilik, ta'lim jarayoni, ta'limga jalb etish, rivojlanish, ota-onalar, oila va jamiyat aloqalari, strategiyalar

Аннотация: анализируются такие аспекты, как социальная ответственность образовательных учреждений, участие родителей в развитии детей и общественная поддержка. Рассмотрена роль родителей и семейного общества в воспитательном процессе, их общение с детьми и их отношение к образованию. Также подчеркивается важность сотрудничества с общественными организациями и государственными учреждениями для помощи беспомощным детям.

Ключевые слова: дети, нуждающиеся в помощи, система образования, сообщество, образовательный процесс, вовлечение в образование, развитие, родители, семейно-общественные отношения, стратегии.

Abstract: The article analyzes aspects such as the social responsibility of educational institutions, parental involvement and community support in the development of children. The role of parents and family society in the educational

process, their communication with children and their attitude to education are considered. The importance of cooperation with public organizations and state institutions in helping vulnerable children is also emphasized.

Key words: *children in need, education system, community, educational process, involvement in education, development, parents, family and community relations, strategies.*

Bolalarning hayoti, ta'lim - tarbiyasi, ma'naviy va ahloqiy kamoloti, ularning barkamol o'sib ulg'ayishiga dahldor barcha masalalar davlatimizning muhim vazifalaridan biri sifatida o'ziga xos huquqiy maqom kasb etgan. Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning jamiyatga uyg'unlashishi huquqi, turar joyga, ijtimoiy yordam olishga bo'lgan huquqi, nogiron bolalar, jismoniy va ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalarning tibbiy-ijtimoiy yordam va bilim olishga bo'lgan huquqlari kafolatlari ham hozirda mavjud. Alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalarni jamiyat hayotiga to'la-to'kis moslashuvi muammolari har doim ham eng dolzarb o'rinni egallab kelgan masalalardan biri bo'lib kelgan. Bolalar nogironligi ularning hayot faoliyatini cheklabgina qolmasdan, ijtimoiy dezadaptatsiyaga olib keladi. Bu esa o'z xulqi ustidan nazorat qila olmaslik, shuningdek o'z-o'ziga xizmat layoqati, oldinga intilish, mo'ljal olish, o'qish, muloqot va kelgusidagi mehnat faoliyatining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bunda esa bolaning rivojlanishida o'zgarishlar bo'lishi uchun oila eng zarur omil hisoblanadi. Oilada alohida ehtiyojli bola tug'ilganda, ota-onalarning hayotga bo'lgan qarashlari, o'zlariga va boshqalarga bo'lgan munosabati o'zgaradi. Shuning uchun alohida ehtiyojli bolalarning rehabilitatsiyasi va jamiyatga integratsiyasi haqida gapirilganda, nafaqat shu bolalarning ehtiyojlarini, balki oilaning ham ehtiyojlarini e'tiborga olish zarurki, ularning ko'pchiligi majmuaviy ijtimoiy ko'makka muhtoj bo'ladi. Har tomonlama rivojlangan sog'lom avlodni tarbiyalash har bir davlatning o'ta dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Istalgan davlatning kelajagi, uning taraqqiyoti va gullab yashnashi o'sib kelayotgan avlodning tarbiyasi qayerda va qanday amalga oshirilishi, bola shaxsining

qay tarzda shakllanayotganiga bevosita bog'liq. O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lgan kuchli ijtimoiy siyosatning diqqat markazida bolalar va ularning oilalarini himoya qilish va yaqindan ko'maklashish vazifasi turadi. Chunonchi, oila jamiyatning asosiy bo'g'ini, hujayrasi hisoblanadi. Har qanday bola mehribon, baxtli va mustaqil bo'lishi mumkin, har qanday bola shaxs sifatida rivojlanadi, faqat bu rivojlanish o'ziga xos tarzda kechadi. U barchamiz kabi hurmatlashga, sevimli hamda jamiyatimizning to'laqonli a'zosi bo'lishga munosibdir. Bola hayotining dastlabki yillarida jamiyat bilan o'zaro aloqadorligi, harakatini buzadigan salbiy omillar miyasining yetilish jarayonini kechiktiradi, tormozlaydi, analizatorlararo murakkab tizimning shakllanishiga to'sqinlik qiladi. Bunday bolalarga o'z vaqtida yordam ko'rsatish uchun uning psixik va ijtimoiy rivojlanishidagi nuqsonlarni mumkin qadar erta aniqlash, bartaraf etish juda muhim ahamiyat kasb etadi. Alohida ehtiyojli bolalarni ta'lim muassasalariga inklyuziyasini ta'minlash (jalb qilish) ularni jamiyatning to'laqonli a'zolariga aylantirish vazifasi qo'yilgan va bunda inklyuziya – alohida ehtiyojli o'quvchilarni ehtiyojlarini qondirish, ta'lim, madaniyat va jamiyatda bo'lib o'tayotgan jarayonlarga keng jalb etish va ta'lim olish yo'lida bo'lgan qiyinchiliklarni yengillashtirish bo'yicha olib boriladigan chora tadbirlarini qo'lash maqsadga muvofiqdir. Inklyuziyaning maqsadi - bolalar, ota-onalar, mutaxassislar va fuqarolarga alohida ehtiyojli bolalar ikkinchi darajali emasligini va ular xavfsiz ekanligini anglatmoqlikdir.

Mamlakatimizda bugungi kunda jismoniy yoki aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan 86 ta ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasasida 21 ming 363 bola ta'lim-tarbiya olmoqda. 13 ming 868 o'quvchiga esa uyda yakka tartibda ta'lim beriladi. Bugungi kun talablari asosida inklyuziv ta'limni joriy etishning huquqiy asoslarini yaratish maqsadida yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonunga inklyuziv ta'lim tushunchasi kiritildi va mazkur qonunning 20-moddasi inklyuziv ta'limga bag'ishlandi. O'zbekistonda inklyuziv ta'limni takomillashtirish, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim- tarbiya berish tizimini shakllantirish hamda ularga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini

yaxshilashga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktyabrda "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Mazkur qaror bilan 2020-2025 yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilindi. Konsepsiyani amalga oshirish bo'yicha 2020-2025- yillarga mo'ljallangan "Yo'l xaritasi" tasdiqlandi. E'tiborli jihati shundaki, 2023-2025- yillarda inklyuziv ta'lim tizimi 51 foiz umumta'lim maktablarida joriy qilinishi belgilangan. Yurtimizda olib borilayotgan bunday islohatlar asnosida xorijiy tajribani o'rganish hamda yurtimizda tatbiq etish juda muhim ahamiyatga ega. Ota-onalar bolalarning ta'lim jarayonida muhim rol o'ynaydi. Ularning ishtiroki quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilishi mumkin. Ota-onalarni bolalarini ta'lim olishga rag'batlantirish va ularni qo'llab-quvvatlash. Ota-onalar bilan muntazam muloqot o'rnatish va ularni ta'lim jarayoniga jalb etish. Oila muhitida bolalarning ta'limga bo'lgan qiziqishini oshirish uchun quyidagi amallarni bajarish mumkin. Oila a'zolari ta'limning ahamiyatini tushunishi va bolalarga yaxshi misol bo'lishi kerak. Oila ichida o'qish va o'rganishga bo'lgan qiziqishni rivojlantirish. Bolalarning o'qish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni hal qilishda ularga yordam berish. Jamoatchilikning ta'lim jarayonidagi roli juda muhimdir. Jamoatchilik bilan ishlash quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilishi mumkin: yordamga muhtoj bolalarga yordam beradigan tashkilotlar va dasturlarni yaratish. Ta'limga jalb etish maqsadida jamoat tadbirlarini o'tkazish, masalan, ko'ngilli yordam dasturlari. Ta'lim tizimidagi muammolarni yoritish va jamoatchilikni jalb etish uchun ommaviy axborot vositalaridan foydalanish.

Yordamga muhtoj bolalarni ta'lim tizimiga jalb etish murakkab, lekin amalga oshirilishi zarur bo'lgan jarayondir. Ota-onalar, oila va jamoatchilik o'rtasidagi hamkorlik bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega. Har bir bola ta'lim olish huquqiga ega va bu huquqni amalga oshirishda barcha tomonlarning ishtiroki zarurdir. Jamiyat sifatli ta'limga ega bo'lgan avlodni tarbiyalash orqali yanada rivojlanadi.

Foydalanilgan adabiyot va havolalar

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. –T: “O'zbekiston” NMIU, 2018.-88 b.
2. Абдуллаева, Ш. А. (2018). СОВРЕМЕННЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ СРЕДНЕЙ ШКОЛЫ. Редакционная коллегия, 459.
3. Erkaboyeva, N. S. (2016). FEATURES OF MODERN UZBEK FAMILIES. Ученый XXI века, (4-1), 36-39.
4. Erkaboyeva, N. S., & Ugli, A. S. S. (2022). Nclusive education and inclusive society. Asian Journal of Multidimensional Research, 11(11), 10-14.
5. “Ta’lim hamma uchun milliy dasturini joriy qilish masalalari” mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent-2005 yil.